

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## XORAZM MAROSIM RAQSLARINING MIFOLOGIK – ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI

**Hulkar HAMROEVA,**

*Filologiya fanlari doktori (DSc)*

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292279>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o'zbek marosim raqslarida shomonizm elementlari va ularning badiiy – estetik, etnografik – mifologik tamoyillari Xorazm raqs maktabi misolida tadqiq qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *an'ana, afsun, marosim, qadriyat, shomon, folbin, Xorazm, raqs, o'yin, folklor.*

**Аннотация.** *В данной статье исследуются элементы шаманизма в узбекских обрядовых танцах, а также их художественно-эстетические и этнографически-мифологические принципы на примере Хорезмской танцевальной школы.*

**Ключевые слова:** *традиция, заклинание, ритуал, значение, шаман, предсказатель, Хорезм, танец, игра, фольклор.*

**Annotation.** *This article examines the elements of shamanism in Uzbek ritual dances, as well as their artistic-aesthetic and ethnographic-mythological principles, using the example of the Khorezm dance school.*

**Key words:** *tradition, spell, ritual, meaning, shaman, fortune teller, Khorezm, dance, game, folklore.*

Chin ma'nodagi asl vatanparvarlar kindik qoni tomgan tabarruk tuproqqa muhabbat va sadoqat, ulug' ajdodlar merosiga, ota makon va oilaga, milliy qadriyatlarga ehtirom, milliy o'zlik, kelajak oldida aas'ullik tuyg'ularini hayotining mazmuni deb biladi. Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan mamlakatimizda tarixiy merosimizning tiklanishi, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, komil insonni tarbiyalash bo'yicha milliy dasturning amalga oshirilishi vatanparvarlik tarbiyasining uzviyligini ta'minlaydi.

Professor Jabbor Eshonqul mushohadasi keng, fikri tiniq, ichki madaniyati, tafakkuri yuksak, chin vatanparvar, fidoyi olimlar toifasiga kiradi. U fanga oid har bir mavzu va predmetni ilohiy xayolot, asotiriy o'ylar, sirli – sinoatli taxayyul, diniy orzu – umidlar va real voqelik uyg'unligida o'rganadi. Xususan, mifologiya, etnografiya, din tarixi hamda falsafaga taalluqli ko'plab adabiyotlarni chuqur o'rganganligi sababli, uning quyma, o'tkir va ilmiy asoslangan fikrlari izoh talab qilmaydi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Uni nafaqat folklorshunoslik, balki adabiyot va san'atning, madaniyatshunoslik va ma'naviyatshunoslikning genezesi, ayniqsa, uzoq o'tmishdagi xalq madaniyati, mifologiyasi, urf – odatlari, olam va odam, odam va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hamisha qiziqtiradi. Olimning ilmiy tadqiqotlaridagi milliy qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish uslubi, poetik tafakkuri, teran falsafasi, badiiy - estetik idroki, adabiy mushohadasi chuqurligi, turli soha mutaxassislarining e'tiborini tortadi. U asrlar chalkashtirgan miflar po'rtanasida millat tarixini ko'radi. Uni ham falsafiy, ham tarixiy tahlil qiladi. Xususan, uning “Mif va badiiy tafakkur” kitobi folklorshunoslik ilmidagi butunlay yangicha yondashuvning, o'ziga xos ilmiy jur'atning mahsulidir. U o'zbek mifologiyasi dinamikasining mantiqiy, falsafiy, ma'naviy va estetik mohiyatini, xususan shomonizmning qadimiy ildizlarini ilmiy jihatdan har tomonlama mukammal asoslaydi.

Professor J.Eshonqulning “Shomon va baxshi tushunchalari bir – biriga bog'liq tushunchalar ekanini Qo'rqut ota haqidagi ko'plab afsonalar guvohlik beradi. Epik ijodning turlicha, ya'ni lingvistik, psixologik, falsafiy va badiiy, mifologik talqinlari bizni bir narsaga baxshi va shomon, aslida bir sinkretik obrazning turli davrlardagi turlicha ko'rinishi ekanligini ko'rsatishiga hech shubha yo'q” [Eshonqulov J. 29:34-35], degan fikrlari o'zbek milliy raqs san'atida, xususan, Xorazm raqs maktabida shomonlik bilan bog'liq raqs elementlarini yangicha yondashuvda o'rganishga undadi.

Ma'lumki, vaqtlar o'tib, otashparastlik marosimlari teatrlashtirilgan uslubda, musiqa va raqs hamohangligida olib borila boshlagan. Marosimlar ommaviy bo'lib, ashula, raqs va pantomimik o'yinlar diniy teatrning muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Maxsus ijrochilar yaxshilik bilan yomonlik ma'budlari o'rtasidagi kurashni va boshqa turli mifologik ilohiy manzaralarni ifodalab, o'yinga tushganlar. Ularning raqsalarida yer va osmonning, ya'ni Quyosh va Oy saltanatiga tegishli yeru - osmon oralig'idagi borliq, tabiat hodisalari, daryolar, ko'llar, daraxtlar, gullar, maysalar, olam va odam ilohiy bog'liqligining (inson yaralishi) yorqin talqinlari sifatida aks etadi. Zardushtiylar marosimlarida Quyoshning Yer va Olov bilan bog'lanishi, hayot daraxtini yashnatishi ifodalanadi. Hamma marosimlar dunyoni o'z alangasi domida yaratgan ulkan Olov atrofida o'tkazilgan.

Professor H.Karomatovning fikricha, “Odatda, afsun bilan maxsus toifa odamlar - jodugar va afsungar, parixonlar shug'ullanib, oliy kuchlarga inson yoki jamoa iltijolarini “etkazgan” va javobni talqin etgan. Ruhlar bilan muloqotga

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kirishish asnosida afsungar - parixonlar doira yoki qo‘ng‘iroq ohanglari jo‘rligida duolar shivirlab, o‘ynagan, sakragan va shu tariqa jazavaga tushgan. Odatda, ular ketidan tomoshabinlar ham jazavaga tushib, parixon o‘zidan ketgan va, aynan shu lahzalar u oliy kuch yoki ruhlar bilan muloqot qilayapti, deb hisoblangan” [Karomatov H. 10:87].

Zardushtiylar yovuz ruhni quvish, qarg‘ishdan, insu – jinlardan qutulish uchun ommaviy marosimlar o‘tkazganlar. E’tiqod nuqtai nazaridan hamma qatnashishi shart bo‘lgan. Vaqtlar o‘tib, ular o‘zlarining birlamchi xususiyatlarini yo‘qotib borganlar. Endi bu rituallarni uyushtiradigan va boshqaradigan maxsus odamlar paydo bo‘lgan. Shomon, folbin, afsungar, parixon degan turli nomlar bilan atalsa – da, ularning vazifasi asosan bir xil bo‘lgan.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qayd etilishicha, “Xorazmliklar ayni qish kunlarida bug‘lanadigan va tutatiladigan dorilarni ishlatadilar, jinlar va yomon arvohlarning zararlarini daf etish uchun is chiqarib, ovqat pishiradilar. Bu tadbir hushyorlik va ehtiyotkorliklar yo‘lida qilingan bo‘lib, bunga ruhiy omillar, ya’ni qaytariq, afsun va duolardan biron narsa qo‘shilsa, zarur amal sanaladi” [Beruniy A.R. 4:280]. Folbinlar biror kasalni davolash maqsadida yoki ruhiy poklanish niyatida ayollarni davraga to‘plashgan. O‘t - olov yoki pilik yoqib, davra aylanib, zikr tushganlar hamda Ollohdan madad so‘raganlar.

Folbinlar, parixonlar bilan bog‘liq ayrim voqeiy hikoyalar tildan – tilga ko‘chib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan: G.Matyoqubovaning “Ofatijon Lazgi” risolasida shunday voqea keltiriladi: “G‘azovot qishlog‘ida yashovchi Guljon momo degan folbin qo‘lida doira bilan chiqdi. U allanimalar deb pichirlab, raqsni boshladi. So‘ng tomoshabin ayollardan ikkitasi o‘rtaga chiqib, doira ohangida chayqala boshlagan. Sekin-asta ohang tezlasha bordi. Birin-ketin davraga boshqa ayollar ham chiqib, jazavaga tusha boshlashdi, ba’zilarining qo‘lida tosh chiroq bor edi. Ritm tezlasha borgani sari jazavaga tortuvchi “ovva, ovva”, “hayyo, hayyo” so‘zlari hatto chekkadagi odamlar qalbiga ham o‘t tashladi, ular beixtiyor turgan joyida tebrana boshlashdi. Nihoyat, folbin va o‘rtadagi ayollar holdan toyib yiqilishdi. Tomosha tamom bo‘lganidan keyin ayollar: “engil bo‘ldim, bir misqol bo‘ldim, qushdek bo‘ldim”, deb tarqalishdi. Momom, “bu “odam o‘ynash” marosimi deb yuritiladi”, der edilar” [Matyoqubova G. 14:57].

Otashparastlik qoldiqlari otashin qalblardan olov halqaning turli yo‘nalishdagi san’atlariga, xalq ashulariga, kuy, raqs, lapar, yallalariga ko‘chdi. Hozirgi Xorazm

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

san’atida qo‘llaniladigan “jaxxu”, “ovva, hey, ovva”, “kishtak-kishtak”, “oh, ohay, ohayyo” so‘zlari otashparastlikdan meros.

Shunday qilib, diniy marosim tomoshalari, o‘yin-raqs kuylari kishilarga taskin berish vositasi bo‘lgan. Ular salbiy kechinmalarni yo‘qotib, ruhan yengillashtirgan. Albatta, bu o‘yinda mazkur marosimlarga bo‘lgan ishonch, e‘tiqod muhim rol o‘ynagan. Gerodotning “Tarix” kitobida yozilishicha: “Amudaryo bo‘yida yashovchi massagetlar kechalari gulxan yoqib, olov o‘chgunicha qo‘shiq aytib, olovni ulug‘lab raqsga tushganlar” [Gerodot 6:75].

Xorazm afsungarlari alqovlarida da‘vat, duolarida shomonlik sehr – jodusi bilan aloqador animistik turlar ko‘p uchraydi. “Avesto”da tilga olingan ma‘naviy – madaniy yodgorliklarning anchagina qismi unutilib ketgan bo‘lsada, ba‘zi irimlar, urf - odatlar avloddan-avlodga o‘tib hozirgacha yashab kelyapti. Ming yillar davomida odamzot jinlarning zararidan xalos bo‘lish uchun ilohiy kuchlardan madad so‘raganlar. Ayniqsa, shomonlarning qattiq jazavaga tushishi tufayli odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo‘lishiga ishongan. Zero, “Afsungarlar bashoratgo‘y ham hisoblanib, kelajakni oldindan aytishgan, o‘g‘rini topib, kasalni davolashgan. Eramizdan oldingi ming yillikning ikkinchi yarmida ular doira va torli musiqa asboblardan foydalangan. O‘rta Osiyodan topilgan tosh haykal qo‘lida torli, yelkasida esa zarbli musiqa asboblari bilan tasvirlanganidan ham ma‘lum” [Karomatov H. 10:87].

D.G.Timofeevning “Shamanizm: filosofsko – religiovedcheskiy analiz” mavzusidagi dissertatsiyasida va bir qator monografiyalar hamda tadqiqotlarda [Timofeev D.G. Kolodeznikova L.D. 20:16] yoritilgan. V.Xagdaevning fikricha, “Shamanlik biz uchun din, hayot, asriy an‘analardir. Yevropalik yangi shamanchilar uchun esa shunchaki qiziqish, ermak” [Xagdaev V. 20]. Zero, professor J.Eshonqul to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Shomonning homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir” [Eshonqulov J. 29:54]. Bizda mavjud lug‘atlarda shomon va shomonlikka shunday izoh berilgan:

**ShOMON** [ r.shaman -zvenkcha shaman – budda ruhoniysi yoki tungus – manjurcha – shaman(saman) – junbushga kelgan, jazavasi tutgan kishi] Amalda barcha qadimiy xalqlarda, hozirda ba‘zi qoloq xalq va qabilalarda: ruhoni, tabib, sehrgar [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4 – j. 24:594].

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

**ShOMONLIK** Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta’sir ko’rsatishiga ishonishdan iborat ibtidoiy e’tiqod shakli. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4 – j. 24:594].

**ShOMONLIK**, shamanlik (zvenk tilida shaman – jazavaga tushish) – ibtidoiy diniy e’tiqod shakllaridan biri. Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta’sir ko’rsatishiga ishonish shomonlikning asosini tashkil etadi [O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi . 10 – j. 26:97].

**ShAMANIZM** - afsun, magiya ma’nosidagi tushunchalar asosida shakllangan bo‘lib, real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta’sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf – odatlar majmuasidir. u totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo‘lib, unga ko‘ra, uning vositasida kishilar o‘z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog‘lanishni amalga oshirib kelganlar” [Nazarov Q. 17:510].

V.I.Basilov “Kult svyatых v islame” kitobida yozishicha, “Qaysidir ma’noda shomonlikni eslatuvchi folbinlik Movarounnahrning ko‘plab shaharlari qatori Xorazmda ham islom dinidan oldingi e’tiqod marosimlarining qoldig‘i sifatida saqlanib kelgan. Ayniqsa, Ko‘hna Urganchda qalandarlar, folbinlar ko‘p bo‘lgan. Ular to‘da – to‘da bo‘lib yurishardi” [Basilov V.I. 3:42], deydi.

Dastlabki davrlarda qalandar va folbinlarning o‘yinlarida otashparastlik asosiy mazmun bo‘lgani turgan gap. Keyinchalik islom aqidalari tobora keng yoyilib, chuqurlasha borgan sari bu o‘yinlarda otashparastlik faqat shakl sifatida saqlangan, xolos. O‘rta asrlarga kelib, erkaklar mehmonxonalar, choyxonalarda yig‘ilib, holdan toyguncha olovga qarab o‘yin tushgan bo‘lsalar [Tolstov S.P. 21:75], XIX asrda erkaklar davra aylanib, og‘ziga issiq temirni qistirib, qo‘lida olov bilan raqs tushganlar [Basilov V.I. 3:42].

Kitobning “Yashtlar” qismida alqovlar, tushlar, taqvimlar, duo o‘qish turlari, boshqa qiyofalarga o‘girilish, tosh magiyasi asosida ish ko‘rish kabi ko‘plab lavhalar mavjud. Zardushtiylar davridan boshlab, sehr – jodu bilan odamlarni qora nazarlardan xalos qilish, bemorlarni davolash mumkin, deb qaralgan. Xotin – xalajlarni yig‘ib, poklanish marosimi, “Folbin o‘yini”, “Po‘rxon o‘yini”, “Qalandarlar raqsi”, “Zikr” turkumi, “Jazava o‘yini” kabi xalq o‘yinlarining bir qismi yillar o‘tishi bilan o‘zlarining ba’zi bir ko‘rinishlarini yo‘qotgan bo‘lsada, tub mohiyatini saqlab qolgan. Xorazm folklorida folbin, po‘rxon (parixon) kabi nomlar tez-tez uchrab turadi. Mutaxassislarining fikricha, “Shomonlikning asosida ayrim kishilarning ruhlar dunyosi bilan muloqot qilishlari va ruhlarga o‘z amrini

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o'tkazishga ishonch g'oyasi yotadi” [Basilov V.I. 3:19]. Ko'p manbalarda zardushtiylik dinida suv, yer, havo, olov, Axuramazda tomonidan yaratilgan, degan fikrlar ham uchraydi.

Shuningdek, “Changak Lazgisi”, “Qayroq Lazgisi”, “Masxaraboz Lazgisi” kabi raqslarda, “Biylama o'yini”, “Qumpishiq o'yini”dagi ba'zi harakatlarda ham seyr – afsun elementlarini sezish mumkin. Ko'pchilik folbinlarni inson olami bilan, ruhlar olamining vositachilari bo'lib, ular odamlar manfaatiga xizmat qiladi, deb ishonganlar. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, bu rituallarda musiqa asboblardan foydalanish odat tusiga kirdi. Yig'ilganlar ham ularga qo'shib qo'shiq aytar, raqsga tushar, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar jaranggiga jo'r bo'lardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek milliy raqs san'ati tarixida shomonizm bilan bog'liq marosim raqslari muhim ijtimoiy-ma'rifiy, badiiy – estetik qimmatga ega bo'lib, ularni monografik planda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // ЎЗА, 2020 йил, 4 февраль.
2. Авдеева Л.А. Ўзбекистон рақс санъати. – Т.: 1960.
3. Басилов В.И. Культ святых в исламе. М.: “Мысль”, 1970.
4. Беруний А.Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Тошкент.: Ўзбекистон нашриёти, 2022. Б.-280.
5. Ботиров Ш.Х. Ўзбек рақси дунё назарида. // [www.kultura.uz/view\\_2r15535.html](http://www.kultura.uz/view_2r15535.html)
6. Геродот. История, 1 том.М.: “Наука”, 1972.
7. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани (Тарихий-этнографик лавҳалар). – Т.: “O'zbekiston”, 2012.
8. Каримов Р. Бухарский танец. – Т.: Изд.им. Г.Гуляма, 1977.
9. Каримова Р. Ўзбек рақслари. Ўқув қўлланма. – Т.: «Чўлпон», 2003.
10. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. Тошкент.: Фафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2008.
11. Карпенко В.Н., Карпенко И.А. История возникновения танцевальной терминологии. // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. М.:2017.
12. Қодиров Ф. Ўзбек рақслари. – Т.: Тошкент, 1964. – Б. 17; Каримова Р. Ферганский танец. Методическое пособие. – Т.: Изд.им. Г.Гуляма, 1973.
13. Мадиева Р. Рақсда миллатнинг руҳи бор. / “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2020. // <https://yuz.uz/authors>
14. Матёкубова Г. Офатижон Лазги. Т.: Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993.
15. Мирзаев Т. Турдимов Ш. Жўраев М. Эшонкулов Ж. Тилавов А. Наралиева Ш. Ўзбек фольклори.Алмата.:2021.
16. Муродова М. Халқ ижодиёти. (Ўқув қўлланма). – Т., 2015.
17. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Т.: Маънавият, 2023. Б. -510.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

18. Насибулина Л.И. Локальные школы национального танца Узбекистана // «Молодой учёный». № 23 (313). Июнь 2020.
19. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: 2006.
20. Тимофеев Д.Г. Колодезникова Л.Д. Шаманизм: традиции и новации в культуре Якутии. М.: 2002 ; Бреусова А.И. Шаманизм в культуре XX века: механизмы формирования и функции. 2007; Ондар Т.А. Психологические функции шаманизма в современных социальных и политических процессах. М.: 1998; Огудин В.Л. Шаманизм. Энциклопедический словарь. М.: Академический проект. Миллер Н.В. Шаманизм: история, особенности развития: На материалах Западной Сибири. М.: 2000.
21. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: изд. МГУ, 1948.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2006.
23. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2007.
24. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2007.
25. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2005.
26. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси . 10 – ж. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. . Б.-97.
27. Ўзбекистон номоддий маданият мероси. – Т.: 2017.
28. Хагдаев В. Из интервью бурятскому изданию: Балашов Т. Интрига среди шаманов.//”Пятница”. 22 мая, 2009 г .
29. Эшонқулов Ж. Миф ва бадий тафаккур. Тошкент.: “Фан” нашриёти, 2019.
30. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/182>
31. <https://meros.uz/uzc/object/chogirma>
32. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shokila-uz/>